

TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSIYALAR VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Muminova Gulasal Baxodirovna

Qo`qon DPI o`qituvchisi

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi uzlusiz ta'lismi tizimida ta'lism innovatsiyalarining qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lism innovatsiyalari – ta'lism sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan

ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lism innovatsiyalari bir vaqtning o'zida "innovatsion ta'lism" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lism" tushunchasi bиринчи bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Ta'lism innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lism tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalar.
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar (3-plakat).

Ta'lism tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra innovatsiyalarning xususiyatlariga ko'ra ularni turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin.

M.V.Klarin pedagogik innovatsiyalarning ikkita turini ajratadi:

1. o'quv jarayonining an'anaviy reproduktiv yo'nalganligi doirasida kafolatlangan natjalarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan modernizatsiyalashgan innovatsiyalar;
2. an'anaviy o'quv jarayonini qayta tashkillashtirishga yo'naltirilgan transformatsiyalangan innovatsiyalar.

O.G.Xomeriki o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog'liqlikda innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatadi:

1. ta'lim mazmuniga doir innovatsiyalar;
2. o'quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar;
3. o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar;
4. ta'lism tizimini boshqarishga doir innovatsiyalar.

Pedagogik innovatsiyalarni boshqaruv jarayonida aniq mezonlar asosida tanlab olishni taqozo etadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholashning umumiy jihatlari quyidagilarda aks etadi:

1. baholanayotgan yangilikning dolzarbliji;
2. yangilikning ta'lim muassasasi rivojining umumiy g'oyasiga mosligi;
3. yangilik kiritishning natijaviyligi;
4. g'oyaning innovatsion salohiyati;
5. g'oyaning metodik ishlanganligi;
6. yangilik o'zlashtirilayotgan muassasaning salohiyat darajasi;
7. yangilikka munosabati bo'yicha turli guruhdagi o'qituvchilarining qiziqishlari darajasi;
8. o'zlashtirish uchun zarur vaqt;
9. yangi g'oyani o'zlashtirish uchun sarflanadigan moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot;
10. tashkiliy shart-sharoitlar;
11. me'yoriy-huquqiy ta'minlanganlik;
12. pedagogika nazariyasi va amaliyotining so'nggi yutuqlariga mosligi.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalahtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish (4-plakat).

Ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi (I.P.Podlasiy):

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

Ta'lim innovatsiyalar umumiy holda o'zida quyidagi jihatlarni namoyon etadi:

Ta'lim innovatsiyalarining umumiy mohiyati

Ta'rifi	Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar
Maqsadi	Sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish
Xususiyati	Boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega
Ko'rinishi	Yangi g'oyalar; tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan'anaviy yondashuvlar; ilg'or ish uslublari odatiy bo'limgan tashabbuslar

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo‘lishlari talab etiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi.

Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya’ni:

1. bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalilanadi.
2. bosqich: mavjud tizimga yangi g‘oyalarni, metodlarni kiritadi.
3. bosqi: yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.
4. bosqich: pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiysi yoki metodikasini yaratadi (5-plakat).

Shunday qilib, lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi “yangilik kiritish”, mazmunan esa muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an‘anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo‘naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy-texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta’lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi hamda u ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta’lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining rivojini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari Ro‘yxatdan o‘tish. 03.07.2018 yildagi 3032-sон.
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun – T.: 2019. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022-yil nashr etilgan dasturi.
5. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC

8. G Nazirova. Мактабгача катта ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий түрүп ҳиссини шакллантириш–ижтимоий педагогик зарурият сифатида. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077
9. GM Nazirova. CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS/ International Academic Research Journal Impact Factor 7 (1), 6
10. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.
11. Omonov X.T., Xo'jayev N.X. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2009.
12. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
13. NA Sultonova, I Sh, D Xolqoziyeva - TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES, European Journal of Research and Reflection in Ed, 2020
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ_FxGoFyzp5QC
15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
16. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C